Faktoring operatsiyalari – bu moliyaviy xizmat turi bo'lib, unda bir kompaniya (odatda kichik yoki o'rta biznes) o'z hisob-fakturalarini pulga aylantirish maqsadida boshqa moliyaviy tashkilotga (faktorga) sotadi. Bu xizmat ko'rsatuvchi tashkilot, ya'ni faktor, mijozning debitor qarzini sotib olib, ushbu qarzga nisbatan ma'lum komissiyani yoki foizni yechib qoladi va qolgan summani mijozga to'lab beradi.

Jahonda iqtisodiyotdagi nobarqarorliklarni keltirib chiqaruvchi o'zaro to'lovsizlik muammosini bartaraf etish, mijozlarning kreditga talablarini qondirish va bunda faktoring operatsiyasini rivojlantirish orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik-kreditorlik qarzlarni kamaytirish iqtisodiy o'sishning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu esa faktoring sanoatlarining resurs manbaini kengaytirish orqali ushbu moliyaviy muassasalar faoliyati barqarorligini ta'minlash jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, 2023-yilda faktoring operatsiyalarining umumiy hajmi 2,44 trln.yevroni tashqil qilgan bo'lib, bunda Yevropadagi yetakchi beshta davlatlarga umumiy faktoring bozorining qariyb 71,3 foizi to'g'ri kelgan.

Faktoring operatsiyalari turli mamlakatlarda va bozorlarda turli qoidalar va tartiblar asosida amalga oshiriladi, ammo ularning umumiy maqsadi – kompaniyalarning pul oqimini yaxshilashdir.

Faktoring hajmidan qat'iy nazar, barcha biznes guruhlar uchun jozibador vositadir. Kichik korxonalar uchun, chunki bu ularga garovsiz moliyalashtirish imkonini beradi. O'rta kompaniyalar uchun faktoringda risklarni sug'urtalash va debitorlik qarzlarni boshqarish muhimroqdir. Yirik korxonalar uchun faktoring balansni "tozalash" imkonini beradi - kreditorlik qarzlarni ko'paytirmasdan, debitorlik qarzlarni qisqartirish, ayniqsa, agar



korxonalar yangi investorlarni jalb qilmoqchi bo'lsa, muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, yirik korxonalar uchun debitorlik qarzlari aylanmasini tezlashtirish masalasi doimo dolzarbdir.

Bank krediti faktoring bilan raqobatlashadigan asosiy vosita deb hisoblanadi. Faktoring an'anaviy kreditlashdan ko'ra bir qator afzalliklarga ega, ularni baholashda biz quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Birinchidan, moliyalashtirishdan tashqari, kompaniya debitorlik qarzlarni boshqarish bo'yicha xizmatlarni oladi: xaridorlarni tekshirish, ularning to'lov intizomini yaxshilash ustida ishlash, xaridorlarning ekspert bahosi asosida yuk tashish limitlarini belgilash. Kredit berishda kompaniya faqat qarz mablag'larini oladi. Bu sof pul mahsulotidir.

Ikkinchidan, kreditni to'lash uchun muomaladan pul mablag'larini olib qo'yish zarur, faktoringda esa moliyalashtirishni qaytarish qarzdorning to'lovlari hisobidan amalga oshiriladi, bu esa yetkazib beruvchiga aylanma mablag'lardan samaraliroq foydalanish imkonini beradi.

Uchinchidan, faktoring chegarasi ko'p jihatdan yetkazib beruvchining moliyaviy holatiga emas, balki yuk tashish hajmiga bog'liq, shuning uchun u korxonaning real ehtiyojlariga ko'proq mos keladi. Kredit belgilangan muddatga, faktoring moliyalashtirish esa haqiqiy aylanma davriga beriladi. Faktoringni moliyalashtirish hajmi jo'natmalar qiymatining 90% ga etadi, bank overdraft esa - maksimal 40%.

To'rtinchidan, korxonalar faktoring moliyalashtirishni yetkazib berilgandan so'ng deyarli darhol (2-3 kun ichida) bankka schot-fakturalar yoki schot-fakturalarni taqdim etish orqali olishi mumkin. Bu kichik biznes subyektlarida alohida qiziqish uyg'otadigan bitim ishtirokchilarining vaqtini tejashni anglatadi. Bankdan kredit olish uchun hujjatlarni yig'ish tartibi uzoq davom etadi. Bundan tashqari, faktoring joriy hisobvaraqa ochishni, shuningdek, garovni talab qilmaydi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Kouvelis, P., & Xu, F. (2021) tomonidan yozilgan maqolada ta'minot zanjiri doirasidagi faktoring va revers faktoringning nazariy jihatlarini tahlil qilingan. Maqolada bu moliyaviy vositalarning ta'minot zanjiridagi korxonalar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi, ularning strategik qarorlarga qanday ta'sir ko'rsatishi va moliyaviy oqimlarini qanday boshqarishi yoritilgan. Faktoring va revers faktoring, mijozlar debitor qarzlarni zudlik bilan likvidlikka aylantirishni istagan hollarda, ta'minlovchilarning moliyaviy holatini yaxshilash vositasi sifatida qaraladi. Maqolada ta'kidlanishicha, bu vositalar ta'minot zanjiridagi barcha ishtirokchilar o'rtasidagi moliyaviy xatarlarni taqsimlash, likvidlikni ta'minlash va ishlab chiqarish jarayonlarini samarali boshqarish uchun muhimdir. Shuningdek, maqolada ta'minot zanjiridagi agentlarning qaror qabul qilish jarayonlari va iqtisodiy modellar asosida faktoring va revers faktoringning ijobiy va salbiy tomonlari ham ko'rib chiqilgan. Ular ta'minot zanjiridagi turli ishtirokchilarning moliyaviy vaziyatiga va xatarlarini kamaytirishga ta'sir qilishi mumkin.

Ivanovic, S., Baresa, S., & Sinisa, B. (2011) ilmiy ishlarida faktoring moliyaviy xizmatining kichik va o'rta biznes subyektlari uchun alternativ moliyalashtirish modeli sifatidagi roli tahlil qilingan. Ilmiy ishlarida faktoringning mohiyati, uning ishlash mexanizmi va kichik hamda o'rta biznes subyektlari uchun moliyaviy oqimlarini yaxshilashdagi ahamiyati o'rganilgan. Mualliflar faktoringning afzalliklarini va uning kompaniyalarning likvidlik bilan bog'liq muammolarini hal qilishdagi o'rnini bayon qilganlar. Shuningdek, ular faktoringni an'anaviy moliyalashtirish usullari, xususan bank kreditlari bilan solishtirganlar va uning tezkorlik, xavfsizlik va narx jihatidan qator afzalliklarini ta'kidlaganlar. Xususan, rekursiv va rekursiv bo'lmagan faktoring, maxfiy va oshkora faktoring kabi turlari, hamda faktoring kompaniyalari qarzdorlikni qaytarish xavfini o'z zimmlariga olib, kompaniyalarga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda yordam beradi. Shuningdek, mualliflar kichik va o'rta biznesning rivojlanishi uchun faktoringning muhimligini ta'kidlaydilar.

Vasilescu, L. G. (2010) ilmiy ishlarida kichik va o'rta korxonalar uchun faktoringning moliyalashtirishdagi alternativ usul sifatidagi ahamiyati o'rganilgan. Muallif, bu tadbirkorlik subyektlari uchun an'anaviy moliyalashtirish vositalariga nisbatan faktoringning afzalliklarini va uning biznesni rivojlantirishdagi muhim rolini bayon qiladi. Muallif faktoringni an'anaviy moliyalashtirish vositalari bilan solishtiradi va uning kichik va o'rta korxonalar uchun likvidlikni yaxshilash va xatarlarni boshqarishda qanday foydali ekanligini tushuntiradi.

Shuningdek, faktoringning turli ko'rinishlari va ularning kichik va o'rta korxonalar uchun qanday qo'llanilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan va faktoring orqali debitorlik qarzlarni boshqarish imkoniyatlari haqida ham so'z yuritilgan. Faktoring, ayniqsa, bank kreditlariga kirish imkoniyati cheklangan bo'lgan kichik va o'rta korxonalar uchun qulay moliyaviy manba ekanligi ta'kidlangan. Muallif fikricha, faktoringning kichik va o'rta korxonalar uchun nafaqat moliyalashtirish manbai, balki iqtisodiyotdagi likvidlikni oshirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatidagi roli ta'kidlangan.

Hasan, M., Le, T., & Hoque, A. (2021) ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlikning inklyuziv moliyalashtirishga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilingan. Inklyuziv moliyalashtirish jamiyatning barcha qatlamlari, jumladan, kam ta'minlangan va zaif guruhlar uchun moliyaviy xizmatlarga keng imkoniyat yaratishga qaratilgan bo'lib, bu maqolada uning ahamiyati va moliyaviy savodxonlikning bu jarayondagi o'rnini o'rganilgan. Mualliflar



moliyaviy savodxonlikni jismoniy shaxslar va xo'jalik subyektlarining moliyaviy qarorlarni to'g'ri qabul qilishlari uchun muhim omil sifatida ta'kidlaydilar. Ilmiy tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlikning inklyuziv moliyalashtirishga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Mualliflar moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali jamiyatning barcha a'zolarini, ayniqsa, kam ta'minlangan qatlamlarni, moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanishga jalb qilish mumkinligini ta'kidlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va ekonometrik tahlillardan, xususan strukturaviy vektorli avtoregressiya modelidan foydalanilgan. Shuningdek, mamlakatimizda faktoring amaliyotini tahlil qilishda tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari hajmi hamda faktoring operatsiyalari foiziga ta'sir etuvchi omillarni ekpirik tahlil qilamiz. Bunda biz ATB Turonbank statistik ma'lumotlaridan foydalanamiz. ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmi ($LnTBFactor_t$) va faktoring operatsiyalari foiziga ($LnFactorRate_t$) ta'sir etuvchi omillar sifatida ATB Turonbank kredit portfeli real hajmining o'zgarishi ($LnTBLoan_t$) va pul bozorida real foiz stavkaning o'zgarishi ($LnMMR_t$) tanlab olingan. Ushbu ko'rsatkichlarni tanlaganiz sabab shundaki, bankda kredit portfelining oshishi nitajasida mijozlarga turli xizmatlar ko'rsatish hajmini ham oshiradi. Shuningdek, oxirgi yillarda tijorat banklari xizmatlari foiziga va bunda asosan kredit operatsiyalari va unga o'xshash operatsiyalar foiz pul bozorida foizlarga bog'liqligi oshgan.

Tanlangan ko'rsatkichlarning 2018M06-2023M12 oralig'idagi statistik ma'lumotlari oylar kesimida va o'sishda olingan. Tahlil qilinayotgan statistik ma'lumotlarning o'lchamlari kichraytirish uchun ushbu ma'lumotlar natural logarifmlab yuborilgan. Natijada ma'lumotlar bir maromda tekislanadi va bir xil o'lchov birligiga keladi.

Ekonometrik tahlilning dastlabki bosqichida bir qator statistik hisob-kitoblarni amalga oshirdik. Bular, tanlangan ma'lumotlarning tasviriy statistikasi, ya'ni bu bunda asosan ma'lumotlarning o'rtacha ko'rsatkichlari, maksimal va minimal ko'rsatkichlari, o'rtachadan chetlashishi (standart dispersiyasi) kabi ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy ishimizda tanlangan ko'rsatkichlarning normal taqsimotini ham tahlil qilamiz.



1-rasm. Tanlangan ko'rsatkichninglanhrning normal taqsimoti.

Ma'lumotlarning normal taqsimotini tekshirish uchun Jak Bera koeffitsiyentidan foydalanildi. Tahlillardan ko'rildiki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar normal taqsimotga ega. Chunki, tanlangan barcha ko'rsatkichlar uchun hisoblangan Jak-Bera koeffitsiyenti ishonchli va ularning ehtimolligi 0,05 dan kichik ekanligi aniqlandi.

Tahlilning dastlabki bosqichida tanlangan ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasini amalga oshiramiz lozim.



1-jadval. Ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi.

	LnTBLoan_t	LnMMR_t	LnFactorRate_t	LnTBFactor_t
Mean	0.032129	-0.000220	-0.000237	0.002329
Median	0.026916	-0.000756	-0.000441	-0.003802
Maximum	0.123086	0.016196	0.016148	0.538175
Minimum	-0.046230	-0.032915	-0.032957	-0.499500
Std. Dev.	0.030730	0.007085	0.007227	0.112771
Observations	66	66	66	66

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ATB Turonbank kredit portfeli hajmining o'rtacha o'zgarish darajasi 0,03 ga teng bo'lib, o'rtachadan chetlashish darajasi 0,03 ga teng bo'lmoqda. Shuningdek, ATB Turonbank kredit portfeli ko'rilyotgan davr oralig'ida -0,04 dan 0,12 gacha tebrangan. Pul bozorida foiz stavkaning real ko'rsatkichini standart dispersiyasi 0,007 ga teng bo'lib, ko'rilyotgan davr oralig'ida -0,03 dan 0,02 gacha tebrangan.

ATB Turonbank faktoring operatsiyalari foizini real ko'rsatkichining o'rtachadan chetlashish darajasi 0,007 ga teng bo'lmoqda. Shuningdek, ATB Turonbank faktoring operatsiyalari foizini real ko'rsatkichi ko'rilyotgan davr oralig'ida -0,03 dan 0,02 gacha tebrangan. ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmining standart dispersiyasi 0,11 ga teng bo'lib, ko'rilyotgan davr oralig'ida -0,5 foizdan 0,54 foizgacha tebrangan.

Tahlilimizning navbatdagi bosqichida ko'rsatkichlarning korrelyatsiya matritsasini aniqlaymiz.

2-jadval. Ko'rsatkichlarning korrelyatsiya matritsasi.

	LnTBLoan_t	LnFactorRate_t	LnMMR_t	LnTBFactor_t
LnTBLoan_t	1			
LnFactorRate_t	0.2916	1		
LnMMR_t	-0.2792	0.9928	1	
LnTBFactor_t	0.3197	-0.1314	-0.1148	1

Jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmining bank kredit portfeli hajmi o'zgarishi bilan korrelyatsiyasi 0,32 teng bo'lib, ular orasida to'g'ri bog'lanish borligini bildiradi. Shuningdek, ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmining pul bozorida foiz staka bilan korrelyatsiyasi manfiy bo'lib, -0,11 ga teng bo'lmoqda. Bu o'z navbatida ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasida teskari bog'liqlik mavjudligini bildiradi.

ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmining ushbu operatsiyalar foizi bilan ham manfiy bog'liqlik borligini ko'rinmoqda. Ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi korrelyatsiya -0,13 teng bo'lishi, faktoring operatsiyalar foizining oshishi korxonalar tomonidan ushbu bank xizmatidan foydalanishni cheklamoqda.

ATB Turonbank faktoring operatsiyalari foizining bank kredit portfeli hajmi o'zgarishi bilan korrelyatsiyasi -0,29 teng bo'lib, ular orasida teskari bog'lanish borligini bildiradi. Bu bank kredit portfeli oshishi bilan faktoring operatsiyalari foizining oshishiga olib kelishini bildiradi. Bizning fikrimizcha bu bog'liqlik mantiqan noto'g'ri qurilgan bo'lib, kredit portfeli hajmining oshishi ushbu bank xizmatining foizini pasaytirish lozim edi.



Shuningdek, ATB Turonbank faktoring operatsiyalari foizining pul bozorida foiz staka bilan korrelyatsiyasi manfiy bo'lib, 0991 ga teng bo'lishi ular o'rtasida kuchli to'g'ri proporsionallik borligidan dalolat beradi. Bu holat yuqorida ta'kidlaganimiz, oxirgi yillarda bank xizmatlari foizi bilan pul bozorida foizlar o'rtasidagi bog'liqlikning isbotidir.


Tahlilda strukturaviy vektorli avtoregressiya (SVAR) modelidan foydalanamiz. SVAR modelidan foydalanishda, dastlab tanlangan ko'rsatkichlar asosida Augmented Dickey-Fuller Test o'tkazamiz.

Ushbu Augmented Dickey-Fuller Test modeli orqali ko'rsatkichlarni birlik ildizga tekshirimiz va ushbu ko'rsatkichlar statsionar yoki nostatsionar ekanligi yuzasidan xulosa qilishimiz maqsadga muvofiqdir.

3-jadval. Augmented Dickey-Fuller Test natijasi.

	Ko'rsatkichlar	t-Statistic	Probability	Хулоса
1	LnTBFactor_t	-7.728107	0.0000	I(0)
2	LnFactorRate_t	-6.981324	0.0000	I(0)
3	LnTBLoan_t	-2.996815	0.0408	I(0)
4	LnMMR_t	-7.153132	0.0000	I(0)

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tanlangan ko'rsatkichlarning barchasi statsionar holatda va bu esa ushbu ko'rsatkichlar asosida SVAR modelidan foydalanishimiz mumkin ekanligiga asos bo'ladi. Buni quyidagi rasm ma'lumotlaridan ham ko'rsak bo'ladi.



2-rasm. Tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlarning 2017-2023 yillar oralg'ida o'zgarish dinamikasi.

Tahlilimizning keyingi bosqichida ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmi va uning foiziga ta'sirini ifodalovchi SVAR modeli uchun optimal "lag"ni tanlab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

**4-jadval. VECM modeli uchun optimal "lag" tanlash (Lag Length Criteria) usuli.**

VAR Lag Order Selection Criteria

Sample: 2018M06 2023M12

Lag	LogL **	LR	FPE	AIC	SC	HQ
0	752.6193	NA	3.82e-16*	-24.14901	-24.01177*	-24.09513*
1	762.5151	18.19556	3.66e-16*	-24.95210*	-243.26593	-23.68269
2	780.8155	31.28770*	4.36e-16	-24.02631	-22.79119	-23.54137
3	792.5566	18.55855	5.08e-16	-23.88892	-22.10487	-23.18846
4	806.8599	20.76293	5.55e-16	-23.83419	-21.50121	-22.91820

Yuqoridagi jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, ATB Turonbank faktoring operatsiyalari hajmi va uning foiziga ta'sir etuvchi tanlangan ko'rsatkichlar hisoblangan ATB Turonbank kredit portfeli hajmining o'zgarishi hamda pul bozorida foiz stavkaning o'zgarishini ifodalovchi strukturaviy vektorli avtoregressiya modeli uchun optimal lag tanlashda Final Prediction Error (FPE), Akaike Information Criterion (AIC) testlari asosida 2 tani tashkil qilgan bo'lsa, Schwarz Information Criterion (SC) va Hannan-Quinn Information Criterion (HQ) testlari asosida esa 1 tani tashkil etmoqda. Demak, biz o'z tahlillarimizda optimal "lag"lar sonini 2 deb qabul qilishimiz xatolikka olib kelmaydi.

Ko'rsatkichlar SVAR modeli orqali "lag"lar soni 2 deb qabul qilingan holda tahlil qilinganda olingan natijalar quyidagicha.

5-jadval. Tanlangan ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi SVAR modeli natijasi.

Vector Autoregression Estimates (with restrictions)


	LnTBLloan	LnMMR	LnFactorRate	LnTBFactor
LnTBLloan (-1)	0.000000	0.000000	-0.004083 (0.00365) [-1.11942]	0.313341 (0.48224) [2.05987]
LnTBLloan (-2)	0.000000	0.000000	0.006760 (0.00366) [1.84865]	0.004604 (0.48353) [0.00952]
LnMMR (-1)	0.000000	0.000000	-0.097043 (0.12082) [-0.80318]	5.942620 (15.9762) [0.37197]
LnMMR (-2)	0.000000	0.000000	0.152499 (0.41567) [2.31841]	12.74805 (15.2947) [0.83349]
LnFactorRate (-1)	0.000000	0.000000	0.109265 (0.11806) [0.92548]	-0.534321 (0.16111) [-0.29045]
LnFactorRate (-2)	0.000000	0.000000	-0.149747 (0.11420) [-1.31126]	-0.245015 (0.15005) [-2.76488]




Model natijasidan ko'rishimiz mumkinki, ATB Turonbank kredit portfeli hajmining bir foizga oshishi keyingi oydan ushbu bank faktoring operatsiyalari hajmini 0,31 foizga oshirmoqda. Shuningdek, ATB Turonabank faktoring operatsiyalari foizining bir foizga oshishi 2 oylik lag bilan ushbu bank faktoring operatsiyalari hajmini -0,24 foizga kamaytirmoqda. Bu bilan aytishimiz mumkinki, bank tomonidan faktoring operatsiyalari foizini oshirishi ushbu operatsiyalariga mijozlar tomonidan qiziqishni pasaytirmoqda.

Strukturaviy vektorli avtoregressiya modeli natijasidan ko'rishimiz mumkinki, pul bozorida foiz stavkaning bir foizga oshishi ikki oydan keyin ATB Turonabank faktoring operatsiyalari foizini 0,15 foizga oshirishga sabab bo'lmoqda.

Tanlangan ko'rsatkichlarning o'zaro impuls reaksiyasi quyida keltirilgan.



3-rasm. ATB Turonbank faktoring operatsiyasi foizining tanlangan ko'rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasi



4-rasm. ATB Turonbank faktoring operatsiyasi hajmining tanlangan ko'rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasi.



Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, ATB Turonbank faktoring operatsiyasi hajmining tanlangan ko'rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasida bank kredit portfelining oshishi bank faktoring operatsiyalari hajmining oshishiga ijobiy ta'sir qilmoqda va bu ta'sir ikki oy saqlanib qolmoqda. Shuningdek, ATB Turonbank faktoring operatsiyasi hajmi o'zgarishida avtoregressiya ham mavjud bo'lmoqda. Bu avtoregressiya manfiy ta'sirga ega bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, faktoring operatsiyalarining quyidagi afzalliklari mavjud.

1. Qarzlarni tezroq pulga aylantirish: Mijozlar o'zlarining debitor qarzlarni uzoq kutmasdan oldindan pul olganlari uchun, o'z aylanma mablag'larini tezroq ishlatish imkoniga ega bo'ladilar.

2. Qarz olishning alternativa usuli: Faktoring bank kreditlaridan farqli o'laroq, debitor qarzlarni pulga aylantirishning usuli bo'lib, bu moliyaviy holatiga qarab har qanday kompaniyalar uchun oson va tezkordir.

3. Qarz topish tavakkalligini kamaytirish: Faktorlar, odatda, qarzdorlar to'lov qobiliyatini tahlil qiladilar va agar qarzdor to'lamasa, faktoring kompaniyasi bilan bog'liq tavakkallikni kamaytiradi.

Model natijasidan ko'rishimiz mumkinki, ATB Turonbank kredit portfeli hajmining bir foizga oshishi keyingi oydan ushbu bank faktoring operatsiyalari hajmini 0,31 foizga oshirmoqda. Shuningdek, ATB Turonbank faktoring operatsiyalari foizining bir foizga oshishi 2 oylik lag bilan ushbu bank faktoring operatsiyalari hajmini -0,24 foizga kamaytirmoqda. Bu bilan aytishimiz mumkinki, bank tomonidan faktoring operatsiyalari foizini oshirishi ushbu operatsiyalariga mijozlar tomonidan qiziqishni pasaytirmoqda.

ATB Turonbank faktoring operatsiyasi foizining tanlangan ko'rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasidan ko'rishimiz mumkinki, bank kredit portfeli oshishi bilan faktoring operatsiyalari foiz ham oshmoqda va bu ta'sir ikki oy saqlanib qolmoqda. Shuningdek, pul bozorida foiz stavkaning oshishi ATB Turonbank faktoring operatsiyalari foiziga to'g'ri proforsional ta'sir etmoqda va bu ta'sir ham ikki oy davom etmoqda.

ATB Turonbank faktoring operatsiyasi hajmining tanlangan ko'rsatkichlarga nisbatan impuls reaksiyasida bank kredit portfelining oshishi bank faktoring operatsiyalari hajmining oshishiga ijobiy ta'sir qilmoqda va bu ta'sir ikki oy saqlanib qolmoqda. Shuningdek, ATB Turonbank faktoring operatsiyasi hajmi o'zgarishida avtoregressiya ham mavjud bo'lmoqda. Bu avtoregressiya manfiy ta'sirga ega bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kouvelis, P., & Xu, F. (2021). A supply chain theory of factoring and reverse factoring. *Management science*, 67(10), 6071-6088.
2. Ivanovic, S., Baresa, S., & Sinisa, B. (2011). Factoring: Alternative model of financing. *UTMS Journal of Economics*, 2(2), 189-206.
3. Vasilescu, L. G. (2010). Factoring—financing alternative for SMEs. In 5th Annual MIDES International Conference, Kavala (pp. 13-23).
4. Hasan, M., Le, T., & Hoque, A. (2021). How does financial literacy impact on inclusive finance? *Financial innovation*, 7(1), 40.
5. Negescu, M. D., Burlacu, S., Mitriță, M., & Buzoianu, O. C. A. (2020). Analysis of Factoring at the International Level. *Managerial Challenges of the Contemporary Society. Proceedings*, 13(1), 99-102.
6. Pérez-Elizundia, G., Delgado-Guzmán, J. A., & Lampón, J. F. (2020). Commercial banking as a key factor for SMEs development in Mexico through factoring: A qualitative approach. *European Research on Management and Business Economics*, 26(3), 155-163.
7. Schnorr, C. P. (2021). Fast factoring integers by SVP algorithms, corrected. *Cryptology ePrint Archive*.
8. Konvisarova, E. V., Pustovarov, A., & Bubnovskaya, T. V. (2020). Problems and prospects of factoring market development in Russia. *REICE: Revista Electrónica de Investigación en Ciencias Económicas*, 8(16), 502-512.
9. Shou, Y., Shao, J., & Wang, W. (2021). How does reverse factoring affect operating performance? An event study of Chinese manufacturing firms. *International Journal of Operations & Production Management*, 41(4), 289-312.
10. <https://turonbank.uz>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

